



## TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR-MAY  
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

**1416,0 mlrd.so'm**

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi

- **15,0 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

**53,1 %**

Norasmiy sektor ulushi –

**31,9 %**

Joriy yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyatida jami 1416,0mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 212,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,0% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,1% ni

tashkil etdi.

Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,1% yoki 752,1 mlrd.so'm to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6%ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,9 % yoki 451,3 mlrd.so'm to`g`ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **212,6mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **129,1 %**


Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi - **752,1mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **103,6 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **451,3mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **109,2%**

## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarning asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1045,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 234,4 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 157,4 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 42,4 mlrd. so'mga ko'paygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 212,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 39,0 mlrd. so'mga ko'paygan.




## Yanvar- may oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



## Yanvar- may oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 14,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 42,5 % (3,1 % ga kamaydi) va norasmiy sektoring ulushi 47,2 % ni (2,2 % ga ko'paydi ) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 33,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,5% ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 65,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % ga kamaydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 96,3 % to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi.



**2019 yil yanvar- may oylarida hududlar bo'yicha  
qurilish ishlari**



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- may oyida 215,6 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 107,7 % ga bajarildi.


	<b>Jami</b>		
	<b>Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)</b>	<b>2018 yil yanvar- may ga nisbatan % da</b>	<b>Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1416,0</b>	<b>108,6</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon shahri	54,9	101,8	3,9
Olmaliq shahri	65,6	114,5	4,6
Angren shahri	61,5	114,7	4,3
Bekobod shahri	56,9	105,0	4,0
Ohangaron shahri	40,4	102,1	2,9
Chirchiq shahri	67,8	102,8	4,8
Yangiyo'l shahri	25,0	124,5	1,8
Oqqo'rg'on tumani	39,7	105,2	2,8
Ohangaron tumani	37,4	99,9	2,6
Bekobod tumani	43,9	101,3	3,1
Bo'stonliq tumani	81,7	119,9	5,8
Bo'ka tumani	29,8	95,6	2,1
Quyichirchiq tumani	24,8	115,3	1,8
Zangiota tumani	215,6	107,7	15,1
Yuqorichirchiq tumani	97,4	106,3	6,9
Qibray tumani	108,4	113,0	7,7
Parkent tumani	69,5	101,2	4,9
Piskent tumani	23,5	124,3	1,7
Ortachirchiq tumani	65,1	117,5	4,6
Chinoz tumani	38,7	105,1	2,7
Yangiyo'l tumani	46,5	97,2	3,3
Toshkent tumani	121,9	116,9	8,6


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Toshkent tumanida (121,9 mlrd. so'm yoki 116,9 %), Qibray tumanida (108,4 mlrd. so'm yoki 113,0 %), Yuqorichirchiq tumanida (97,4 mlrd. so'm yoki 106,3 %) va Bo'stonliq tumanida (81,7 mlrd. so'm yoki 119,9 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahrida (25,0 mlrd. so'm yoki 124,5 %), Bo'ka tumani (29,8 mlrd. so'm yoki 95,6 %) va Piskent tumani (23,5 mlrd. so'm yoki 124,3 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





### 2019 yilning yanvar- may oylarida qurilish ishlari umumiyligi hajmida hududlarning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 15,1 %ini, Toshkent tumanida 8,6 %ni va Qibray tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,7 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo`l shahrida bu ko`rsatkich eng past 1,8 %ni tashkil etdi. Bo`ka tumani 2,1 %ni va Piskent tumanda 1,7 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo’limi**

**Nashirga mas’ul: B. Djavliyev**

**Tel.: 230-86-70, (71)**